

RAQAMLI PEDAGOGIKADA KLASTER MODELİ ASOSIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH

Nuraliyeva Dilshoda Yo'lchiboy qizi

University of Business and Science

Pedagogika va Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi.

nuraliyeva0097@gmail.com

+998906930097

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda klaster modeli asosida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilingan. Kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik mohiyati, klaster modelining didaktik imkoniyatlari hamda umumiy pedagogika fanini o'qitish jarayonida mazkur modelni qo'llashning samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: klaster modeli, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik ta'lim, kasbiy kompetensiya, umumiy pedagogika, pedagogik texnologiya, innovatsiya, pedagog,

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРНОЙ МОДЕЛИ

Аннотация. В данной статье представлен всесторонний анализ вопросов совершенствования компетентностного подхода на основе кластерной модели в развитии профессиональных компетенций будущих учителей в системе педагогического образования с научной, теоретической и практической точек зрения. Обоснованы педагогическая сущность компетентностного подхода, дидактические возможности кластерной модели и эффективность использования данной модели в процессе обучения общеобразовательной педагогике.

Ключевые слова: кластерная модель, компетентностный подход, педагогическое образование, профессиональная компетентность, общеобразовательная педагогика, педагогические технологии, инновации, педагог,

IMPROVING THE COMPETENCY-BASED APPROACH IN PEDAGOGICAL EDUCATION BASED ON THE CLUSTER MODEL

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the issues of improving the competency-based approach based on the cluster model in the development of professional competencies of future teachers in the pedagogical education system from a scientific, theoretical and practical perspective. The pedagogical essence of the competency-based approach, the didactic capabilities of the cluster model, and the effectiveness of using this model in the process of teaching general pedagogy are substantiated.

Keywords: cluster model, competency-based approach, pedagogical education, professional competence, general pedagogy, pedagogical technology, innovation, , pedagogue,

KIRISH

Jahon ta'lim makonida kechayotgan globallashuv jarayonlari, raqamli transformatsiya va ta'lim mazmunining yangilanishi pedagog kadrlarni tayyorlashga qo'yilayotgan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi kunda zamonaviy o'qituvchi faqat fan bo'yicha bilim egasi bo'lishi bilan cheklanib qolmasdan, balki pedagogik jarayonni loyihalash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash hamda o'z kasbiy faoliyatini reflektiv baholash kompetensiyalariga ega bo'lishi zarur. Shu nuqtai nazardan, pedagogik ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonining natijaviyligini oshirishga, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lashga xizmat qiladi [1].

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish O'zbekiston Respublikasining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" da har bir bosqichda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etish zarurligi qayd etilgan. Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimlarini tashkil etish davomida maktablarda innovatsion texnologiyalardan to'g'ri va samalarali foydalanishni tashkil etish dolzarb vazifalardan biri bo'lmoqda. Shu o'rinda, Farrux Qodirov aytganlaridek: "Bugungi kunda dunyo raqamli inqilob davrini boshdan kechirmoqda. Axborot texnologiyalari (AT) ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni tubdan o'zgartirmoqda, ular rivojlanish uchun muhim harakatlantiruvchi kuch sifatida qaralmoqda. Mazkur yondashuvni samarali amalga oshirishda ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shulardan biri – klaster modeli bo'lib, u o'quv materiallarini tizimli, mantiqiy va vizual tarzda tashkil etish imkonini beradi.

Klaster bu pedagogik strategiya bo'lib unda o'quvchilar o'zlarining bilib darajalarini tekshirib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Klaster – o'quvchilarga berilgan mavzu bo'yicha erkin fikr yuritish imkonini beruvchi, ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z bilimlari, tushunchalari, yoki g'oyalari kirish imkonini beruvchi,

shuningdek xotira va fazoviy fikrlashni rivojlantiradigan pedagogic strategiya. Ushbu strategiyada o'quvchilar yakka tartibda, guruh bo'lib yoki butun sinf jamoasi ishtirokida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq. Klasterlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, bilimlar o'rtasidagi sabab – oqibat bog'lanishlarini anglashga yordam beradi hamda bilish faoliyatini faollashtiradi [2].

Ayniqsa, umumiy pedagogika fanini o'qitishda klaster metodlaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tafakkuri, pedagogik refleksiyasi va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bois mazkur tadqiqot pedagogik ta'linda klaster modeli asosida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirishga qaratilgan. Bu yondashuv natijasida o'quvchilarda metodik ko'nikmalar – o'rganish, tushunish, mustaqil qaror qabul qilish va jamoada ishlash malakalari rivojlanadi. Interfaol o'qitish metodlari zamonaviy ta'lim tizimida asosiy o'rinni egallaydi. Bu usullar dars mashg'ulotlari davomida o'quvchilarning ishtirokini eng yuqori darajada ta'minlab, ularning mavzu bo'yicha o'rgangan bilimlarini yanada mustahkamlashga qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kompetensiyaviy yondashuv muammosi xalqaro va milliy pedagogik tadqiqotlarda keng yoritilgan. I.A.Zimnyaya kompetensiyani ta'lim natijasining integral ko'rsatkichi sifatida talqin qilib, uni shaxsning bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlari uyg'unligi sifatida izohlaydi [3]. V.A. Slastenin kompetensiyaviy yondashuvni pedagog kadrlar tayyorlashning metodologik asosi sifatida ko'rib, uning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi [4]. Mahalliy olimlardan B.X. Xodjayev pedagogik texnologiyalarni kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omili sifatida baholab, klaster metodlarini interfaol ta'lim shakllari qatoriga kiritadi [5]. M.M. Abdullayeva esa kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqib, ta'lim jarayonida faol metodlardan foydalanish zarurligini asoslaydi [6]. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, klaster modelining umumiy pedagogika fanini o'qitishdagi imkoniyatlari yetarlicha empirik tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlarga asoslandi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalaniladi:

- ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik jarayonni tizimli kuzatish;
- suhbat va so'rovnoma metodlari;
- pedagogik tajriba-sinov ishlari;
- statistik taqqoslash va umumlashtirish metodlari.

Tajriba-sinov ishlari pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida olib boriladi. Tadqiqotda jami ikki guruh – **eksperimental** va **nazorat** guruhlari shakllantiriladi. Eksperimental guruhda umumiy pedagogika fanini o'qitishda klaster modeli asosida mashg'ulotlar tashkil etiladi, nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish usullari qo'llaniladi. Tajriba-sinov ishlari natijalari klaster modeli bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy, kommunikativ, refleksiv va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali pedagogik texnologiya ekanligini tasdiqlanadi. Tadqiqot natijalari pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini modernizatsiyalash va innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etishda amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Eksperiment uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. diagnostik bosqich;
2. shakllantiruvchi bosqich;
3. yakuniy nazorat bosqichi.

Mamlakatimizda pedagogik ta'lim klasteri doirasida shu vaqtgacha bo'lgan ishlarda ta'lim klasterining nazariy va ilmiy asoslashga, uning sub'ektlarini belgilashga, ularning alohida va integratsion faoliyatini izohlashga, amaliy jarayonlar uchun 75 "laboratoriya"lar tashkil qilishga hamda loyihalarni joriy etishga katta ahamiyat berildi. Olib borilgan izlanishlarning asosiy ahamiyati ta'lim turlari va mazmuni integratsiyasi asosida tashkil qilingan ta'lim klasteri tuzilmasida ijtimoiy buyurtmani belgilash orqali uning pedagogik tizimini takomillashtirilganligi bo'ldi. Bo'lajak mutaxassislar tayyorlash tizimining mintaqaviy klasterlarini tashkil qilish orqali biz mintaqaning ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlariga mos pedagog-kadrlar

tayyorlash tizimini takomillashtirishga xarakat qilamiz. Ta'lim klasteri tamoyillarining imkoniyatlari bu tizim faoliyatiga katta hissa qo'shadi. Ta'lim klasteri ta'lim muassasalarining ma'lum bir guruhga (pedagog-kadrlar tayyorlash) faqatgina mexanik integratsiyasini emas, ularning bir biriga bog'liqligi va o'zaro ta'sirlarini ham ko'rsatadi. Bu esa, ta'lim klasteri qismlarining (ob'ektlar, sub'ektlar, jarayonlar) sifatli ravishda alohida va bir butun holida o'zgarishiga olib keladi, uning tizimli ishlashi natijasida innovatsion kompetentli pedagog - kadr tayyorlanadi.

NATIJARLAR

Tajriba-sinov ishlari natijalari klaster modeli asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarining kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan, eksperimental guruh talabalarida:

- pedagogik bilimlarni tizimli o'zlashtirish darajasi oshdi;
- pedagogik tushunchalarni tahlil qilish ko'nikmalari shakllandi;
- mustaqil va tanqidiy fikrlash rivojlandi;
- kommunikativ va refleksiv kompetensiyalar kuchaydi.

Yakuniy nazorat natijalari eksperimental guruhda kompetensiya darajasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligini tasdiqladi. Bu esa klaster modelining ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Klasterlash usuli uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida samarali qo'llanilishi mumkin. Boshlang'ich va o'rta ta'limda ushbu yondashuv ta'lim standartlarini muvofiqlashtirish orqali o'quv dasturlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Kasbiy ta'lim va malaka oshirish jarayonida esa ishlab chiqarish korxonalarini bilan birgalikda malakali kadrlarni tayyorlashga yordam beradi. Oliy ta'limda klasterlash usuli ilmiy fan va tadqiqot faoliyatini ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan. Ushbu usulning samaradorligini tasdiqlovchi misollardan biri oliy o'quv yurtlari va sanoat korxonalarini o'rtasida tashkil etilgan hamkorlik loyihalaridir. Bu kabi loyihalar talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham ta'minlashga imkon beradi, natijada ular o'z sohasi bo'yicha raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanadi. Klasterlash usuli, ayniqsa, ta'lim tizimi va ishlab chiqarish sektori o'rtasida o'zaro uzviylikni ta'minlash uchun muhim

ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshirish, balki ta'lim muassasalari va korxonalar o'rtasida uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Natijada, o'quvchilar bilim olish jarayonida nafaqat bilimlar bilan, balki mehnat bozoridagi real talablar bilan ham tanishish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

MUHOKAMA

Kutilayotgan natijalar klaster modelining kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishdagi didaktik imkoniyatlarini tasdiqlaydi. Klasterlar yordamida ta'lim mazmunining vizual va mantiqiy tashkil etilishi talabalar bilish faoliyatini faollashtirib, bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari ilgari o'tkazilgan ilmiy izlanishlar bilan uyg'unlashadi va ularni amaliy jihatdan boyitadi. Ayniqsa, umumiy pedagogika fanida klaster metodlaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda samarali vosita ekanligi ilmiy asoslandi. Bo'lajak mutaxassislar tayyorlash tizimining mintaqaviy klasterlarini tashkil qilish orqali biz mintaqaning ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlariga mos pedagog-kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga xarakat qilamiz. Ta'lim klasteri tamoyillarining imkoniyatlari bu tizim faoliyatiga katta hissa qo'shadi. Klasterlash usuli ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish sektori va jamiyat o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash orqali o'quv jarayonini tizimli va integratsiyalashgan holda tashkil qilish imkonini beradi. Bu usul o'quvchilarni nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalar bilan ham ta'minlashga yordam beradi.

jumladan, uzluksiz ta'lim tizimida klasterlash yondashuvi ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida: maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'lim va malaka oshirish dasturlarigacha samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida klasterlash usuli nafaqat resurslarni samarali boshqarish, balki yangi texnologiyalarni joriy qilish, pedagoglarning malakasini oshirish va o'quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish uchun ham qulay imkoniyat yaratadi. Bu, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarni global mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarga aylantirish imkonini beradi.

XULOSA

Natijalar shuni ko'rsatadiki, pedagogik ta'limda klaster modeli asosida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Klaster metodlaridan tizimli foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, talabalarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Mazkur tadqiqot natijalari pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga tatbiq etishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim klasterining modernizatsion qiyofasi unda turli ta'lim xizmatlarining mavjudligidadir, shu munosabat bilan biz pedagog – kadrlar tayyorlashga qaratilgan mintaqaviy ta'lim klasterida ta'lim xizmatlarini oshirishimiz, bu xizmatlardagi metodikalarni takomillashtirishimiz lozim. Takomillashtirilgan metodikalar bo'lajak o'qituvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatini tasvirlab beruvchi asosiy bloklardan tashqari, o'zining shaxsiy va kasbiy nuqtai nazariga tanqidiy baho berish, har qanday faoliyatga, jarayonga asoslangan yondashuv hamda shaxsiy maqsadlarni ishlab chiqish, muvaffaqiyatning muhim omillari, samaradorlik ko'rsatkichlari, ta'lim maqsadlar va takomillashtirish choralarini o'z ichiga olgan to'rtta jihat: moliya, iste'molchilar, ichki jarayonlar, bilim va o'rgatish nuqtai nazaridan shakllantirilishi zarur.

Klasterlash usuli, ayniqsa, ta'lim tizimi va ishlab chiqarish sektori o'rtasida o'zaro uzviylikni ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshirish, balki ta'lim muassasalari va korxonalar o'rtasida uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Natijada, o'quvchilar bilim olish jarayonida nafaqat bilimlar bilan, balki mehnat bozoridagi real talablar bilan ham tanishish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shuningdek, klasterlash usulining qo'llanilishi ta'lim jarayonining barqarorligini ta'minlash, turli hududlarda ta'lim resurslarini teng taqsimlash va mintaqaviy o'ziga xosliklarni inobatga olish imkonini beradi. Bu usul yordamida ta'lim tizimi yanada moslashuvchan, innovatsion va o'zgaruvchan talablar sharoitida tezkor yechimlar taklif eta oladigan bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetensii kak rezultat obrazovaniya. Moskva: Pedagogika, 2004.
2. Xodjayev B.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Fan, 2018.
3. Abdullayeva M.M. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish metodikasi. Toshkent: Innovatsiya, 2020.
4. Slastenin V.A. Pedagogika. Moskva: Akademiya, 2015.
5. Xodjaev B.X. Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. UNESCO. Competency-based teacher education. – Paris, 2019.
7. Ziyomuhamedov B.–Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent, 20212.Sayidahmedov N. –Pedagogik innovatsiyalar. Toshkent, 2020.
8. Qizi, N. D. Y. L. (2025). EMOTSIYA VA UNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI. Research Focus, 4(Special Issue 2), 834-841.
9. Qizi, N. D. Y. L. (2025). MAMLAKATIMIZDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH. Research Focus, 4(Special Issue 2), 795-802.
10. Jo'raev R.X. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.